

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BADIY-ESTETIK MADANIYATNI O’YINLAR ORQALI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

Turopova Ra’no Barat qizi
Termiz davlat pedagogika instituti o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagи bolalarning o’yinli texnologiyalar yordamida badiy-estetik madaniyatini shakllantirish, ularni har tomonlама mакtab ta’limiga sifatli qilib tayyorlash kabi masalalar ko’rib chiqildi.

Kalit so’zlar: o’yin, badiy-estetik, MTT, ahloqiy me’yorlar, o’zini-o’zi boshqarish qobiliyati, rag’batlantirish va jazolash tizimi, shaxslararo munosabatlar, estetik did, aqliy va xissiy dunyosi, orzu-umidlari, talab-ehtiyojlar.

Аннотация: В данной статье были рассмотрены такие вопросы, как формирование художественно-эстетической культуры дошкольников с помощью игровых технологий, качественная подготовка их к общеобразовательному школьному обучению.

Ключевые слова: игра, художественно-эстетическая, MTT, нравственные нормы, способность к самоконтролю, система поощрений и наказаний, межличностные отношения, эстетический вкус, психический и эмоциональный мир, мечта-ожидания, потребности.

Maktabgacha yosh davridanoq bolalar ma’lum axloqiy me’yorlar asosida o’z xulq-atvori, o’zining va boshqa kishilarga baho berish jarayoniga rahbarlik qila boshlaydi. Ularda axloqiy tasavvurlar, axloqiy o’zini-o’zi boshqarish qobiliyati shakllanadi. Axloqiy tasavvurlar manbai sifatida bolalarga ta’lim-tarbiya beruvchi yaqin kattalar va tengdoshlari aks etadi. Axloqiy tajriba kattalardan bolalarga o’tadi va muloqot, kuzatish va taqlid qilish jarayonida, rag’batlantirish va jazolash tizimi orqali o’zlashtiriladi. Maktabgacha yoshdagи bola shaxsini shakllantirishda muloqot alohida o’rin tutadi. Bolaning shaxslararo munosabatlarga kirishishiga qarab uning qanday shaxs bo’lib voyaga yetishini anglab yetishimiz mumkin.

Estetik tarbiya, eng avvalo, kishilarning estetik didlari shakllanishiga katta ta’sir o’tkazadi. Shaxs o’zligi - uning estetik didi orqali namoyon bo’ladi. Estetik didda inson aqliy va xissiy dunyosi, orzu-umidlari, talab-ehtiyojlar, maqsad-manfaatlari ro’yobga chiqishi ifodalanadi. Did - faqat kayfiyatga qarab emas, balki inson faoliyat samaralari vositasida ham ifoda topadi. Inson faoliyatining barcha samaralarida uning didi aks etadi.

Estetik tarbiya o‘z diqqat-e’tiborini shaxs estetik ehtiyojlarini shakllantirishga qaratadi, xilma-xil o‘ta murakkab talab-ehtiyojlarni birlashtiradi, uyg‘unlashtiradi va hamoxang tarzda amal qilishi uchun shart-sharoitlar yaratib beradi.

Estetik tarbiyaning inson talab-ehtiyojlari madaniyatini shakllantirishdagi o‘rnini ham beqiyosdir, zero, insonning talab-ehtiyojlari madaniyatida muayyan mezon tuyg‘usi ham mavjud bo‘lishini, bu mezon tuyg‘usi shaxsiy ehtiyojni jamiyat ehtiyoji bilan mutanosib tarzda ko‘shib olib borishni taqozo etadi. Ana shu mezon tuyg‘usida yetuklikka erishish - estetik tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biridir.

Estetik ehtiyoj faqat moddiy va ma’naviy go‘zallik lardan lazzatlanishgina emas, balki har qanday amaliyot sohasida narsalarni nafosat qonunlariga rioya qilgan holda yaratishni, faoliyatga go‘zallikni tatbiq qilishni ham bildiradi. Shu bois, estetik tarbiya hayot jabhalarining hammasiga - o‘qish, mehnat qilish, ilmiy va texnik izlanish, jamoaviy faoliyatga tatbiq etilishi lozim bo‘ladi.

Maktabgacha katta yoshdagagi bolalar ko‘p holatlarda ma’lum bir axloqiy kategoriyalardan foydalanib o‘zining xulq-atvoriga izoh bera oladi. Bu esa, unda axloqiy o‘zini-o‘zi anglash va o‘zini-o‘zi boshqarishning nishonalari mayjudligini ko‘rsatadi. To‘g‘ri, bu yoshdagagi bolalarning boshqalarning fikrlari, qarashlari va xatti-harakatlariga alohida e’tibor qaratishi tufayli, tegishli shaxsiy sifatlarning tashqi ko‘rinishlari barqaror namoyon bo‘lmaydi¹⁴.

Maktabgacha katta yoshdagagi bolalarni badiiy-estetik rivojlantirishning yana bir o‘ziga xosligi - bilish jarayonlari sohasida yuzaga keladigan o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Masalan, bolalarda estetik ideallarni shakllantirish, dunyoqarashning tarkibiy qismi sifatida murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir. Buni barcha pedagog va psixologlar qayd etib o‘tishgan. Tarbiya jarayonida hayotiy munosabatlar, ideallar o‘zgarishga uchraydi. O‘rtoqlari, kattalar, san’at asarlari, hayotiy zarbalar ta’sirida ideallar tubdan o‘zgarishi mumkin. B.T.Lixachev qayd etib o‘tganidek, “Yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalarda estetik ideallarni shakllantirish uchun ilk bolalikdan turli-tuman shakllarda jamiyat, odamlar, odamlar o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi ideal tasavvurlarni tarkib toptirish lozim. Buni amalga oshirish har bosqichda yangi va qiziqarli shakllardan foydalanishni talab etadi”¹⁵.

Tarbiyachi maktabgacha katta yoshdagagi bolalarni badiiy-estetik rivojlantirishning quyidagi o‘ziga xosliklarini hisobga olishi lozim:

- 1) go‘zallik haqida fikr yuritib, tarbiyachi mazmunga emas, hissiyot ta’siriga

¹⁴ Эндрюс Т. Магия танца: пер. с англ. / Т. Эндрюс. - Москва: ReFL. - Book, 1996. - 256 с.

¹⁵ Лихачев Б.Т. Теория эстетического воспитания школьников. - Москва: Педагогика, 2002. - 183 с.

e’tibor qaratishi;

- 2) badiiy-estetiy tuyg‘uni san’atning sensor rivojlantirish vositalari, ya’ni narsa- buyumlarning go‘zalligi, shakli, rangi, uzunligi, chiziqlari, ovozning birligida ekanligi bilan bog‘laydi. Buning uchun, sensor tarbiyaga doir didaktik o‘yinlarni tashkil etish lozim;
- 3) bola taqlidchan bo‘lgani uchun tarbiyachi faqat ijobiy namunalarni berishi shart.

Yuqoridaqilarni inobatga olgan holda, mакtabgacha ta’lim muassasasi tarbiyalanuvchilari bilan ishslashda ularning individual-psixologik hususiyatlaridan kelib chiqqan holda, yosh hususiyatlari bosh me’zonini tashkil etuvchi faoliyat ko‘rinishlariga muvofiq bo‘luvchi ta’sir vositalaridan, didaktik o‘yin, rolli mashg‘ulotlarni amalda qo‘llash, bolalarda badiiy-estetik madaniyatni shakllantirishning mustahkam asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Toshpulatov F. USE OF GEOMETRIC PATTERNS AND THEIR TYPES FROM ELIMINATIONS OF DRAWING AND APPLIED ART IN ARCHITECTURAL FACILITIES //Физико-технологического образования. – 2022. – Т. 1. – №. 1.
2. Uralovich T. F. Conducting classes on fine arts based on information and communication technologies //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – Т. 6. – С. 3-3.
3. Toshpulatov F. U., Norqochqorov R. E. O., Maxmudova X. N. Q. Xalq amaliy san’atining chizmachilik fani bilan bog’liqligi //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 138-142.
4. Toshpulatov F. U., Norkochkarov R. E. O., Mahmudova H. N. Q. THE RELATIONSHIP OF FOLK APPLIED ARTS WITH THE SCIENCE OF DRAWING //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 2.
5. Toshpo’Latov F. U. et al. Bolalarni o ‘yin texnologiyalari asosida kasbhunarga qiziqishlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi o ‘yinlar //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 487-491.
6. Tashimov N. E., Toshpulatov F. U. Activating Students in Building Intersection Line by Quadratic Transformations Method //www. auris-verlag. de.–2018. – 2018.

7. Toshpulatov F. U., Turopova R. B. Games that develop children's interest in the profession based on game technology //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 487-491.
8. Toshpulatov F. U., Murodaliyevna T. F. DEVELOPMENT OF THE SKILLS OF STUDENTS TO AVOID TYPICAL ERRORS WHEN PERFORMING CUTTING AND CUTTING //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 5. – C. 70-74.
9. Urolovich T. F. et al. TASVIRIY SAN AT DARSLARIDA TASVIRNI TO GRI CHIZISHDA PERSPEKTIV POZITSION VA METRIK MASALALAR DAN AMALDA TO GRI FOYDALANISH //Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects. – 2022. – C. 41-44.
10. Toshpulatov F. U. GEOMETRICAL ANALYSIS OF THE ELEMENTS OF ANCIENT GREEK AND PLANT-LIKE (ISLAMIC) MOTIFS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 8. – C. 461-468.
- 11.. Urolovich T. F. CHIZMACHILIK DARSLARIDA AMALIY SAN'AT ELEMENTLARIDAN FOYDALANIB TARKIBIDA TUTASHMA ELEMENTLAR QATNASHGAN NAQSH NAMUNALARINI CHIZISH //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 158-162.